

# Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

## ILLATLAR - JAMIYAT XAVFSIZLIGIGA TAHDID

*Karimova Saida*

*Guliston davlat universiteti o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborotning globallashuvi natijasida internet orqali kirib kelayotgan ma'naviy tahdidlar, yoshlar ma'naviyatiga tahdid solayotgan illatlar, ularning inson va jamiyat xavfsizligiga ta'siri, shuningdek, illatlarni bartaraf etish kamolot omili ekanligi yoritib berilgan.

**Kalitso'zlar:** globallashuv, tahdid, illat, kashandalik, alkogolizm, egoizm, turmush tarzi.

Globalashuv jarayonini barcha jabhalarda bo'lgani kabi, axborot soxasida ham ko'rishimiz mumkin. Axborotning globallashuvi, uni tarqatish vositalarining takomillashib borayotkanligi, tezkor va oson ma'lumot tarqatish imkoniyati axborot xuruji, axborot tahdidini kuchayib borishiga sabab bo'lyapti. Bejizga XXI asr axborot asri deb ta'riflanmaydi. Hozir deyarli barcha maqsadlarni axborot tarqatish orqali amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Bugun yoshlarimiz ma'naviyatiga internet tarmog'i tahdid solmoqda. Chunki, internetda tarqatilayotgan axborotni nazorat qilish imkonsiz. Har kim istagan ma'lumotini tarqatmoqda. Ayniqsa, dezinformatsiya ya'ni, haqiqatdan yiroq axborot tarqatib, yoshlar dunyoqarashini o'z maqsadi yo'lida boshqarishga urinishlar kuchayishi, internetda uy qurib olgan jinoiy guruhlar, ekstremistik tashkilotlar, mafkuraviy markazlarni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan axborotlarni urchitishi, yoshlarimizda illatlarni paydo bo'lishiga, buzg'unchi g'oya va mafkuralar ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida jamoatchilikni tashvishga solib, yoshlarning mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash masalasini muhim ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo'yimoqda.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kitobida illatga – tandagi dard, kasallik, xastalik, – jismoniy yoki ruhiy kamchilik, nuqson, ayb – deb izoh berilgan.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yomon xulqlarga (illatlarga) “Insonlarni saodatga abadiyatdan mahrum qiladurgan, janobi haq qoshida va xalq nazarida mazmun, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo‘lgan axloqi zamimalar”, deb ta'rif beradi.

Bugungi kunda jamiyatimizning yosh qatlamida illatlarni ko'payayotganligi, tobora axloqiy buzuqlik ta'siriga tushib qolish xavfi kuchayayotganligi judayam alamli.

Axloqiy buzuqlik bu- insonning axloqiy dunyosida illatlarning kuchayishi, fazilatlarining kamayishi yoki yo'qolib borishi natijasida yemirilishning vujudga kelishi.

Axloqiy buzuqlikning ko'rinishlari:

- ✓ kashandalik;
- ✓ alkogolizm;
- ✓ ayollarning erkakcha so'kinishi;
- ✓ individualizm
- ✓ pornografiyani targ'ib qilish, tomosha qilish va tarqatish;
- ✓ starizm

# Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

- ✓ bilimsizlik, axloqsizlik, madaniyatsizlik, tartibsizlikni qoʻllab quvvatlash;
- ✓ loqaydlik
- ✓ badanga turli xil tatuirovkalar chizish;
- ✓ bir jinsli nikoh;
- ✓ loqaydlik;
- ✓ jamoat joyida kiyinish madaniyatini buzgan holda yurish;
- ✓ kattalarga behurmatlik;
- ✓ ikkiyuzlamachilik
- ✓ erkaklarning ayollarcha oʻziga oro berishi kabilar kiradi.

Yuqorida sanalgan illatlarni ayrimlariga eʼtibor qaratsak. Ayni damda kashandalik, alkogalizmga ruju qoʻyganlar tez-tez uchrab turibdi. Avvallari ahyon ahyonda uchraydigan bu illat, tobora koʻpayib bormoqda.

Individualizm illati boʻlgan kishi oʻz manfaatlarini oʻzgalarnikidan ustun qoʻyadi, faqat oʻzi uchun yashash odatini oʻzlashtiradi. Individualizm gʻoyasi Yevropa madaniy anʼanalarini koʻz-koʻz qilib targʻib etish bilan gʻoyani joriy qilishga faqat oʻzi uchun yashashni afzal bilish lozim.

Egotsentrizm bu insonni “men”ligini ustuvor qoʻyishdan iboratdir. Buning eng qoʻrqinchli jihati shundaki, unday odam oʻzini doimo haq deb biladi, oʻzgalarga nisbatan bepisand qarash, oʻz xatti-harakatlarini mutlaqo toʻgʻri deb bilish egotsentrizmning asosiy belgisidir.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, bunday illatlarni yoshlarimizda paydo boʻlayotgani ularni tobora maʼnaviy hastalanib borishiga xizmat qilmoqda. Hozirda alohida yakka shaxslarda shakllanayotgan illatlar, ertaga butun bir jamiyatning illatiga aylanib qolmaydi deb kim kafolat beradi? Arzimasdek tuyulgan kichik illatlar ertaga butun bir jamiyatni hastalashi hatto mafkuraviy xavfsizligini susaytirishi mumkin. Barkamol avlodni kamol toptirish, ularni maʼnaviy kamolotini yuksaltirish omillaridan biri bu illatlardan forigʻ boʻlib borish yoʻlidir. Xalqimiz milliy mentalitetiga zid boʻlgan, qadriyatlarimizni oyoqosti qilishlariga, yoshlarimizni ongini egallab boshqarishlariga aslo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Bunga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish, yoshlarimizni oʻzimizga xos milliy qadriyatlarimiz assosida tarbiyalashimiz zarur. Buning uchun ularning qalbi va vujudidan illatlarni bartaraf etib, fazilatlarini koʻpaytirib borishimiz lozim.

## ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 2006.
2. Saida, K. (2020). Features of manifestation of ideological threats in the process of globalization. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1428-1433.